

Dars mavzusi: To'pgullar.

Darsning ta'limiy maqsadi. O'quvchilarni to'pgullarning turlari, biologik ahamiyati bilan tanishtirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi. To'pgullarning biologik ahamiyati, turlari bilan tanishtirish orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, estetik, ekologik va axloqiy tarbiya berish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi. O'quvchilarning gullar tuzilishi, to'pgullar va ularning biologik ahamiyati haqidagi bilimlarni gullarni tanish va ajratish, kuzatish va darslik ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Darsni jihozlash. To'pgulli xona o'simliklari, gul tuzilishi, oddiy va murakkab to'pgullar jadvallari, gerbariy jamlanmalari.

Darsda foydalaniladigan texnologiya. Modulli ta'lim texnologiyalari (o'quvchilarning kichik guruhlarda ishlashga mo'ljallangan modul dasturlari).

Asosiy tushunchalar va tayanch bilimlar: boshqoq, shingil, soyabon, qalqoncha, savatcha, so'ta, boshcha, kuchala, murakkab boshqoq, murakkab shingil-ro'vak, murakkab soyabon, gajak.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

II. O'quvchilar bilimini aniqlash va baholash uchun topshiriqlar.

1-topshiriq. Jadvalning chap tomonidan to'g'ri va qiyshiq gulli o'simliklarni aniqlab jadvalning o'ng tomoniga yozing

№	O'simlik nomi	№	O'simlik nomi	O'simlik turi	Raqamlar
1	Olma	9	Isfarak olcha	To'g'ri gulli o'simliklar	
2	Qo'ng'iroqgul	10	Olcha		
3	O'rik	11	Suvyig'ar		
4	Parpi	12	Burchiq		
5	Shaftoli	13	Rayhon	Qiyshiq gulli o'simliklar	
6	Gunafsha	14	Lola		
7	angishvonagul	15	Marmarak		
8	Gilos	16	na'matak		

2-topshiriq. Jadvalning chap tomonidan gulqo'rg'on bo'laklari qo'shilgan, qo'shilmagan va gulqo'rg'on bo'laklari yo'qolgan o'simliklarni aniqlab jadvalning o'ng tomoniga yozing.

№	O'simlik nomi	№	O'simlik nomi	O'simlik turi	Raqamlar
1	Olma	10	Qo'ytepechak	Gulqo'rg'on bo'laklari qo'shilmagan o'simliklar	
2	Terak	11	Qayin		
3	Marmarak	12	Nok		
4	Yong'oq	13	Tol	Gulqo'rg'on	

5	Jag'-jag'	14	Lola	bo'laklari qo'shilgan o'simliklar	
6	O'sma	15	Karnaygul		
7	Angshvonagul	16	Qovun	Gulqo'rg'on bo'laklari yo'qolgan o'simliklar	
8	Gilos	17	Suvyig'ar		
9	Boychechak	18	Tut		

3-topshiriq. Test savollariga javob bering. (Botanikadan mustaqil o'quv-ish daftari asosida)

1. Bitta gulda ham urug'chi, ham changchi bo'sa bunday gul qanday nomlanadi?

- A. Bir jinsli gul
- B. Ikki jinsli gul
- D. Bir uyli o'simlik
- E. Ikki uyli o'simlik

2. O'simlikning bir tipida ham changchi gul, ham urug'chi gul ulashgan bo'lsa, bunday o'simlik qanday nomlanadi?

- A. Bir jinsli gul
- B. Ikki jinsli gul
- D. Bir uyli o'simlik
- E. Ikki uyli o'simlik

3. Bir turdagi o'simlikning changchili gulari bir tupda, urug'chi gullari boshqa tupda bo'lsa, bunday o'simlik qanday nomlanadi?

- A: Bir jinsli gul. B. Bir uyli o'simlik.
- D. Ikki jinsli gul. E. Ikki uyli o'simlik.

4. Gul asosidan boshlab ikkitadan ortiq teng bo'lakka bo'linsa qanday gul deyiladi?

- A. Ikki jinsli gul. B. Bir jinsli gul.
- D. To'g'ri gul. E. Qiyshiq gul.

5. Gul faqat ikkita teng bo'lakka bo'linsa, yoki imuman bo'linsa qanday gul deyiladi?

- A. Bir jinsli gul. B. Ikki jinsli gul.
- D. Qiyshiq gul. E. To'g'ri gul.

III. O'tgan mavzuni yakunlash va yangi mavzuni o'rganish.

IV. O'quvchilar faoliyatini yangi mavzuni o'rganishga qaratish va modul dasturining didaktik maqsadi bilan tanishtirish.

Mazkur mavzu mazmunini 2 ta tugallangan mantiqiy mazmunga ega modul (blok yoki qism)ga ajratish mumkin: •

- 1. To'pgullar. Oddiy va murakkab to'pgullarning farqi.
- 2. To'pgullarning xillari.

Shu modullar asosida modul dasturi tuziladi.

«To'pgullar» mavzusi bo'yicha o'quvchi laming kichik guruhlarda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturi.

Modul dasturining didaktik maqsadi. Siz modul dasturi yordamida mustaqil ishlablo'pgullarning o'ziga xos tuzilishi, oddiy va murakkab to'pgullar, to'pgullarning xillari bilan tanishishingiz, kuzatish, darslik va qo'shimcha o'quv adabiyotlari ustida mustaqil ishlash ko'nikmalingizni, nutq va muloqolmadaniyatingizni rivojlantirishingiz zarur.

O'FE	O'quv materialiyuzasidan topshiriqlar	Topshiriqqa oid ko'rsatma
1- O'FE	Maqsad: To'pgullarning tuzilishi, oddiy va murakkab to'pgullar bilan tanishish. Quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring: 1. To'pgullarga ta'rif bering. 2. Oddiy va murakkab to'pgullarni taqqoslang. Ularning o'xshashligi va farqlarini aniqlang. 3.Oddiy va murakkab to'pgulli o'simliklarga misol keltiring.	O'quvchilar guruhi bilan hamkorlikda ishlang. O'quvchilar jamoasi bilan o'tkaziladigan savol-javobda faol ishtirok eting.
2- O'FE	Maqsad: Oddiy va murakkab to'pgullarning xil- lari bilal tanishish. Quyidagi savollarga javob toping va topshiriqlarni bajaring: 1 . Qaysl o'simliklarning gullari oddiy qalqonsimon to'pgulga ega bo'ladi? 2. Qaysi o'simliklarning guli oddiy boshhoq boUadi? 3. Oddi> shingilga ega o'simliklarni aniqlang. 4. Murakkab soyabonning tuzilishini ko'rib chiqing. Misollar keltiring. 5. Murakkab shingilli gulga ega o'simliklarni aniqlang. 6. Murakkab boshhoq va kuchalaning tuzilishini taqqoslmg. 7 . Savatpha to'pgulli o'simliklarni aniqlang. 8. O'zlashtirgan bilimlaringizga asoslanib quyidagi	Darslikdagi matnni diqqat bilan o'rganing. O'quvchilar ja moasi bilan o'tka- liladigan savol-javobda faol ishtirok eting.

	topshiriqlarni bajaring	
--	-------------------------	--

1-topshiriq. Botanikadan mustaqil o'quv-ishdaftoriga oddiy to'pgulli o'simliklarning nomlarini jadvalga yozing

bo-shoq	shingil	soyabon	qalqoncha	savatcha	so'ta	boshcha	kuchala
							

2-topshiriq. Botanikadan mustaqil o'quv-ish daftoriga murakkab to'pgulli o'simliklarning nomlarini

murakkab boshq	murakkab shingil-ro'vak	murakkab soyabon	gajak
			

V. O'quvchilarning modul dasturi yordamida mustaqil ishlarini tashkil etish. Har bir modul yakunida o'quvchilar jamoasi bilan savol-javob, o'quv munozaralarini o'tkazish.

VI. Modul dasturini yakunlash.

VII. Yangi mavzu bo'yicha o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash uchun topshiriqlar.

1-topshiriq. Jadvalda berilgan o'simliklarga xos to'pgul turlarini aniqlang.

O'simlik nomi	Oddiy to'pgul				Murakkab to'pgul	
	Oddiy boshq	qalqon	soyabon		Murakkab boshq	Murakkab soyabon
Oshpiyoz						
Bug'doy						

Sabzi						
Zubtutum						
Jag'-jag'						
Olma						
Qamish						

2-topshiriq. O'quvchilarda ijodiy fikrlashni tarkib toptirish uchun savollar.

1. Agar hashorat uchib kelgan maydonda oddiy gullar va to'pgullar bo'lsa, hashorat ularning qaysi biriga qo'nadi deb o'ylaysiz.

2. Hashoratlar tabiatda qaysi gulni osonroq topadi? Boshqanima yoki savtchanimi? Nima uchun?

3. Nima sababdan boshq, rovak, kuchala to'pgullari rangsiz, soyabop, shingul, savatka to'pgullari rangli bo'ladi? Javobingizni asoslang

VII Uyga vazifani belgilash.